

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI OSHIRISH

Axmedova Matluba Abdusattorovna

Buhoro Osiyo Xalqaro Universiteti

*"Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(Boshlang'ich talim) 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili fanini o'qitishda o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini oshirish, maktabda o'quvchilar nutqini o'stirishga ona tili o'qitish, ona tili dars jarayonlarini uyg'unlikda olib borish haqida batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ona tili o'qitish, kommunikativ qobiliyatlar, nutq o'stirish, integratsiya.

Kirish:

Hozirgi vaqtida ta'lif sohasiga har qachongidan ham ko'proq ahamiyat berilmoqda. Bu esa, o'z vaqtida ta'lifning dastlabki ishtirokchilari bo'lgan o'qituvchilarga yanada yuqori mas'uliyat yuklaydi. Sababi bugungi kun o'qituvchisi har sohada yetuk va bilimdon bo'lmog'i kerak va shartdir. O'qituvchi o'quvchilarga fanga oid yetarli bilimlarni berish, fanga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birgalikda ularning tasavvurida fanlarning o'zaro uzviy bog'liqligini, biri ikkinchisini taqozo qilishi haqidagi muayyan tushunchani hosil qilishi darkor.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Ona tili darslarini har bir mavzu doirasida o'zaro turdosh va boshqa fanlar bilan bog'langan holda tashkil qilish, o'quv jarayonining mohiyatli bo'lishini ta'minlaydi. Axborotlar ko'laming kengayishi, o'quvchilar bilishi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalar hajmining oshishi, integratsion jarayonlarning optimal variantlarini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. Bu kabi keng qamrovli jarayonlarni tashkil qilish, boshqarish va yo'naltirish uchun esa, albatta, o'qituvchidan tinimsiz ravishda o'z ustida ishslash va intellektual salohiyatni talab qiladi.

Ona tili fanini o'qitishda integratsiya o'zaro turdosh va boshqa fanlar bilan tarkibiy bog'lanishni mustahkamlab, ularni umumlashtirib, o'quvchilarning tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurlarini yanada boyitish uchun xizmat qiladi. Bu jarayon o'qituvchining qanday usul va vositalardan mohiyatli foydalanishiga bog'liq.

Maktabda o'quvchilar nutqini o'stirishga ona tili o'qitishning muhim vazifasi deb qaraladi. Nutq o'stirish faqat ona tili va o'qish darslarininggina emas, balki o'quv rejadagi hamma fanlarning, shuningdek, sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning ham vazifasidir. Shuningdek, gaplarni, badiiy asarni hamda she'rlarni yordamchi so'z turkumlari: ko'makchi, bog'lovchi va yuklamasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Matnlarni izohlab, so'zlarning o'z o'rnida qo'llanilishini o'quvchilarga tushuntirish, tahlil qilish va shu orqali o'quvchilarni fikrlash qobiliyatini va nutqini o'stirish ishimizning asosiy maqsadini belgilaydi.

Natijalar:

Ona tili dars jarayonlarini uyg'unlikda olib borish, o'quvchilarning badiiy-estetik

dunyoqarashini yanada boyitadi. Ona tilida darslarida yangi mavzuni tushuntirish hamda tahlil yuzasidan bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lib, til bo'yicha nazariy ma'lumotlarini mustahkamlab borishda yordam beradi. Til o'qitishda til va nutq hodisalarining farqiga yetmaslik asosan chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda.

Til va nutq tushunchalarini bir-biridan ilmiy asosda farqlash uni o'qitish metodikasi uchun yuqori ahamiyat kasb etadi. Sababi til birliklarining grammatic belgilarini, birikuvini va vazifasini bilishning o'zi ushbu tildagi nutqni egallash uchun yetarli emas. Asosiy maqsad tilning grammatic qurilishi yordamida nutq faoliyatini egallash bo'lganligi tufayli, mashg'ulot materiallarini tanlash, darslarni tashkil qilish ishlari o'quvchi nutqini rivojlantirish va shakllantirishga qaratilishi lozim.

Muhokama:

Ona tili mashg'ulotlarida shunday holatni vujudga keltirish kerakki, o'quvchi yaratgan matnidan qoniqish hosil qilsin. Bu uni o'z nutqini rivojlantirib borishga ilhomlanadiradi. O'quvchilar erkin tarzda ijodiy fikrlasalar fikr mahsulini nutq sharoitiga xos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalay olsalar, demak, ona tili mashg'ulotlari samarali o'tgan bo'ladi.

Boshlang'ich sinf, ona tili darslarida olib boriladigan hamma mashg'ulotlarning yetakchi o'rni nutq o'stirish bo'lib, u savod o'rgatish, chiroli yozish ko'nikmalarini takomillashtirish va fikrlash doirasini kengaytirish vazifalarini o'z ichiga oladi. Bu darslarda asosan amaliy maqsadlarni ko'zlash, til boyliklaridan nutqda foydalanish malakalarini takomillashtirish, ijodiy fikrlash, o'quvchilarning til sezgirligini tarbiyalash kerak. Ularning og'zaki nutqini doimiy o'stirib boorish bog'anishli nutq, matn tuzishlarda amaliy yordam beradi. Ma'lumki, bu vazifalarni amalga oshirish yo'llari turli xildir.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'zgalar fikrini tinglashi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la oladigan ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mavlonova, K. Ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini integratsiyalash asosida o'rganish metodikasi. 2016.
2. Abdurazzoqova D. "Interfaol metodlar: nazariya, amaliyat, tajriba" Pedagoglar uchun qo'llanma. Toshkent-2013.
3. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. – T: Yangi asr avlodи nashriyoti, 2005.
4. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topshiriqlardan foydalanish. – Ped. fanlari nomzodi diss. avtoref. – T.: 2000.